



Tasdiqlayman
RIAKHATM direktori
Professor Razikova I.S.

Toshkent, 08 aprel 2025 yil

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi majlislar zali

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023 yil 23 noyabrdagi PQ №“371- Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy –amaliy tibbiyot markazi qoshidagi tashkil etilgan Ustoz-shogird an'analarini davom ettirish uchun tashkil etilgan maktabda va uning samarali faoliyatini yolg'a qo'yish maqsadida Gruziya Xalqaro allergologiya-immunologiya markazi professori , EAACI eksperti Gotua M.A. tomonidan 08.04.2025 yilda markaz va uning xududiy filiallari xodimlari uchun (ZOOM platformasida), klinik ordinator va magistrlar uchun “Insekt allergiyasining maxsus immunoterapiya usulini O'zbekistonda tadbiq etish” mavzusida maxorat darsi tashkil etildi va o'tkazildi.

Dunyoda hasharotlarga allergiyaning tarqalishi turlicha: kattalarda pardasimonqanotlilar zahariga sensibilizatsiya 9-29% ga yetadi, chaqishga tizimli reaksiyalar 0,3-7,5% da qayd etiladi. Populyatsiyadagi anafilaksiya chastotasi 100 000 odam-yiliga 50-112 epizodni tashkil qiladi, umrbod tarqalish esa 5% ga yetadi. O'zbekistonda hasharotlar chaqishiga allergiya 5 foiz atrofida tarqalganini ko'rsatadigan dolzarb protokollar mavjud. RSHTYOIM Toksikologiya ilmiy-klinik bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, har yili mart oyidan noyabr oyigacha toksikologiya qabul bo'limlariga insekt allergiyasi bilan 2700 dan 3500 gacha bemor murojaat qiladi, ularning 10-12 foizida Kvinke shishi va anafilaktik shok kabi hayot uchun

xavfli asoratlar rivojlanadi. Vaziyat biogeografiyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan murakkablashadi: mamlakatda sharq qovog'ari (*Vespa orientalis*) va *Vespula* va *Polistes* avlodlari vakillari mavjudligi hujjatlashtirilgan, shuningdek, asalarichilikning sezilarli o'sishi (2023-yilda 31,5 ming tonna asal, 2022-yilga nisbatan 16 foizga o'sish) qayd etilgan, bu esa aholining potensial xavfli hasharotlar bilan aloqa qilish chastotasini oshiradi.

Maxorat darsida insekt allergiyasining halokatli asoratlarini tashxislash, davolash va oldini olishning yangi usullarini ishlab chiqish va klinik amaliyotga joriy etish maqsadini ko'zda tutdi.

Maxorat darsi munozaralari yakunida ushbu mavzuda maqsadli qo'shma innovasion amaliy loyixasi bir ovozdan mutaxassislar tomonidan qabul qilindi.

Maxorat darsi davomida xodimlar mavzu bo'yicha savollar va testlarga javob berishdi.

Kun oxirida ishtirokchilar bilimlarini yangilab, ko'tarinki kayfiyatda tarqalishdi.





